Zohidova Ruksora Komiljon qizi	
ТИПЫ НАЦИОНАЛЬНЫХ ФИНАНСОВЫХ РАЗВЕДОК: ОСНОВНЫЕ РАЗЛИЧИЯ, ФОРМЫ И МЕТОДЫ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	817
Эсанов Шохрух Отабекович	
FACE RECOGNITION PROGRAM IN PYTHON.....	823
Khurramova Maftunakhon Zhurabekovna, Khurramov Azizjon Bakhodir ugli	
FORMATION OF ACCOUNTING POLICY FOR INTANGIBLE ASSETS.....	827
Farxod T. Abdvaxidov, Ramazon A. Abdurakhmanov	
O'ZBEKISTON EKSPORT TARKIBINI YUQORI QO'SHIMCHA QIYMATLI MAHSULOTLARGA O'TKAZISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	834
Raximov Eshmurod Normuradovich	
EKSPORT FAOLIYATIDA ERKIN IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	838
Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	
TURIZM KLASTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	841
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi Farxodova Shohnoza Umidbek qizi	
O'ZBEKISTON HAVO TRANSPORTI TIZIMINING JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	850
Azimova Moxinur Nozimovna	

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA BARQAROR RIVOJLANISH KLASTERLARI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR

Sherkulova Nodirabegim Baxordin qizi
"Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasasi assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston misolida yashil iqtisodiyot sharoitida raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanish klasterlarining nazariy asoslari hamda amaliy yondashuvlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida sistemali tahlil, institutsional yondashuv, statistik ma'lumotlar va SWOT-tahlil kabi metodlardan foydalanildi. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning rivojlanishi qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan davlat strategiyalari orqali amalga oshirilmoqda. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya jarayonlari (elektron hukumat, aqlli qishloq xo'jaligi, raqamli monitoring) yashil iqtisodiyot loyihalarining samaradorligini oshirmoqda. Qishloq xo'jaligi va sanoat klasterlarida resurs tejovchi texnologiyalar joriy etilishi, energetika klasterlarida esa quyosh va shamol elektr stansiyalari asosida yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratilishi muhim yutuq sifatida qayd etildi. Biroq, raqamli infratuzilmaning ayrim hududlarda cheklanganligi, chiqindilarni qayta ishlash tizimining sustligi va innovatsion kadrlar yetishmovchiligi kabi muammolar ham mavjud. Maqola yakunida yashil iqtisodiyot va raqamli transformatsiya integratsiyasini yanada rivojlantirish uchun strategik tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot; raqamli transformatsiya; barqaror rivojlanish; klasterlashuv; qayta tiklanuvchi energiya; aqlli texnologiyalar; innovatsiya; resurs samaradorligi; davlat-xususiy sheriklik; uglerod neytralligi.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations and practical approaches to digital transformation and sustainable development clusters in the context of the green economy, using Uzbekistan as a case study. The research applied methods such as systemic analysis, institutional approach, statistical data, and SWOT analysis. The development of the green economy in Uzbekistan is being implemented through state strategies aimed at increasing the share of renewable energy sources, ensuring rational use of resources, and achieving ecological sustainability. The findings reveal that digital transformation processes (e-government, smart agriculture, digital monitoring) enhance the effectiveness of green economy projects. In agricultural and industrial clusters, resource-saving technologies are being introduced, while in energy clusters, new production capacities are being created based on solar and wind power plants. However, challenges remain, including limited digital infrastructure in certain regions, underdeveloped waste recycling systems, and a shortage of innovative human capital. The article concludes with strategic recommendations to further advance the integration of the green economy and digital transformation.

Key words: Green economy; digital transformation; sustainable development; clustering; renewable energy; smart technologies; innovation; resource efficiency; public-private partnership; carbon neutrality.

Аннотация: В данной статье на примере Узбекистана анализируются теоретические основы и практические подходы к цифровой трансформации и устойчивому развитию кластеров в условиях «зеленой экономики». В ходе исследования использовались методы системного анализа, институционального подхода, статистических данных и SWOT-анализа. Развитие «зеленой экономики» в Узбекистане осуществляется через государственные стратегии, направленные на увеличение доли возобновляемых источников энергии, рациональное использование ресурсов и обеспечение экологической устойчивости. Результаты показали, что процессы цифровой трансформации (электронное правительство, «умное» сельское хозяйство, цифровой мониторинг) повышают эффективность проектов «зеленой экономики». В аграрных и промышленных кластерах внедряются ресурсосберегающие технологии, а в энергетических кластерах создаются новые мощности на основе солнечных и ветровых электростанций. Однако существуют и проблемы, такие как ограниченность цифровой инфраструктуры в отдельных регионах, слабость системы переработки отходов и нехватка инновационных кадров. В заключении статьи представлены стратегические рекомендации по дальнейшей интеграции «зеленой экономики» и цифровой трансформации.

Ключевые слова: Зеленая экономика; цифровая трансформация; устойчивое развитие; кластеризация; возобновляемая энергия; умные технологии; инновации; ресурсная эффективность; государственно-частное партнёрство; углеродная нейтральность.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi jadal rivojlanmoqda. Jahon hamjamiyati tomonidan ilgari surilgan Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs), shuningdek, Parij kelishuvi asosida O‘zbekiston ham uglerod chiqindilarini kamaytirish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash va resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqmoqda. Bunda yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik muammolarni bartaraf etish vositasi, balki mamlakat iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish hamda aholining turmush darajasini yaxshilashning muhim mexanizmi sifatida ko‘rilmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy davrda iqtisodiyotning hech bir sohasi raqamli transformatsiya jarayonlarisiz samarali faoliyat yurita olmaydi. O‘zbekistonda 2030 yilgacha mo‘ljallangan rivojlanish konsepsiyasida “raqamli iqtisodiyot” tushunchasi markaziy o‘rin egallab, davlat xizmatlarining elektronlashtirilishi, ishlab chiqarish tarmoqlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, klasterlashuv mexanizmlarida raqamli yechimlarni qo‘llash masalalari ustuvor vazifa qilib belgilangan.

Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi — resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni minimallashtirish va ekologik barqarorlikni ta‘minlashdir. Bu jarayonda raqamli texnologiyalar hal qiluvchi rol o‘ynaydi: masalan, energiya samaradorligini monitoring qilish, aqlli qishloq xo‘jaligi tizimlari, transport oqimlarini raqamli boshqarish, sun‘iy intellekt yordamida resurs sarfini optimallashtirish. O‘zbekistonda elektr energiyasida “yashil” manbalar ulushini 2030-yilgacha 30 foizga yetkazish, qishloq xo‘jaligida esa resurs tejoychi texnologiyalar ulushini oshirish bo‘yicha qat‘iy vazifalar qo‘yilgan.

Raqamli transformatsiyasiz bu maqsadlarga erishish imkonsiz. Chunki raqamli texnologiyalar real vaqt rejimida ma‘lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va qaror qabul qilish imkoniyatlarini yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, yashil iqtisodiyotga xos bo‘lgan barqaror rivojlanish klasterlarini shakllantirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Klaster modeli — bu iqtisodiyotda turli korxonalar, ilmiy-tadqiqot markazlari, ta‘lim muassasalari va davlat idoralari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali samaradorlikni oshirish mexanizmidir. Yashil iqtisodiyot sharoitida klasterlar energetika, qishloq xo‘jaligi, kimyo sanoati, transport-logistika va boshqa sohalarda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Masalan, O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi klasterlarini shakllantirish orqali yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, hosildorlikni oshirish va eksport salohiyatini kengaytirish imkoniyati paydo bo‘lmoqda.

Barqaror rivojlanish klasterlari raqamli texnologiyalar yordamida yanada samarali bo‘lishi mumkin. Masalan, blokcheyn asosidagi ta‘minot zanjirlari, raqamli monitoring tizimlari, sun‘iy intellekt asosida ishlab chiqilgan prognozlash mexanizmlari klasterlarning samaradorligini oshirish bilan birga ekologik barqarorlikni ham ta‘minlaydi.

O‘zbekiston bugungi kunda yashil iqtisodiyot sohasida qator muammolar bilan yuzlashmoqda:

- Energiya resurslaridan yuqori darajada foydalanish va past samaradorlik;
- Chiqindilarni qayta ishlash tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- Raqamli infratuzilmaning ayrim hududlarda cheklanganligi;
- Kadrlar salohiyati va innovatsion faoliyatning past darajasi.
- Shu bilan birga, imkoniyatlar ham keng:
- Quyosh va shamol energiyasini kengaytirish bo‘yicha yirik loyihalar;
- Qishloq xo‘jaligida “aqlli texnologiyalar”ni joriy etish;
- Elektron hukumat va “raqamli hudud” loyihalarini keng tatbiq etish;
- Innovatsion klasterlar orqali xalqaro hamkorlikni kuchaytirish.

Ushbu maqolaning maqsadi — O‘zbekiston misolida yashil iqtisodiyot sharoitida raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanish klasterlarining nazariy asoslari hamda amaliy yondashuvlarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashdan iborat.

- Yashil iqtisodiyot va raqamli transformatsiya integratsiyasining O‘zbekiston sharoitida o‘ziga xos jihatlari ochib beriladi.

- Barqaror rivojlanish klasterlarining samaradorlik omillari va ularni raqamlashtirish mexanizmlari ishlab chiqiladi.

- O‘zbekiston iqtisodiy siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlarga ilmiy asoslangan tavsiyalar taqdim etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘zbekiston misolida yashil iqtisodiyot, raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanish klasterlari o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish uchun ushbu maqolada sistemali yondashuv, institutsional tahlil, statistik metodlar va komparativ yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy obyekti sifatida O‘zbekistondagi energetika, qishloq xo‘jaligi va sanoat klasterlari tanlab olindi, chunki bu sohalar mamlakatda yashil iqtisodiyot strategiyasining eng muhim yo‘nalishlarini tashkil etadi.

Maqolada foydalanilgan asosiy manbalar quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari (masalan, “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi – 2030”);
- Vazirlar Mahkamasi qarorlari va tegishli normativ-huquqiy hujjatlar;
- Davlat statistika qo‘mitasi va Energetika vazirligining ochiq ma‘lumotlari;
- Jahon banki, BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP), Osiyo taraqqiyot banki (ADB) hisobotlari;
- O‘zbekistonlik olimlarning ilmiy maqolalari, monografiyalari va konferensiya tezislari.

1. Sistemali tahlil: yashil iqtisodiyot va raqamli transformatsiya jarayonlari o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ko‘p qirrali tizim sifatida ko‘rib chiqildi. Masalan, energetika klasteri tahlilida ishlab chiqarish, taqsimlash, iste‘mol va chiqindi jarayonlari bir butun holda o‘rganildi.

2. Institutsional tahlil: davlatning tartibga solish mexanizmlari, normativ-huquqiy hujjatlar va tashkiliy tuzilmalar o‘rganildi. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga oid huquqiy asoslar qanchalik samarali ekanligi baholandi.

3. Statistik metodlar: iqtisodiy ko‘rsatkichlar, investitsiya hajmlari, energetika iste‘moli va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bo‘yicha rasmiy ma‘lumotlar tahlil qilindi.

4. SWOT-tahlil: yashil iqtisodiyot va klasterlashuvdagi kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar va tahdidlar aniqlab chiqildi.

5. Komparativ yondashuv: O‘zbekistonning ayrim mintaqalaridagi (masalan, Toshkent shahri va Qashqadaryo viloyatidagi energetika loyihalari) farqlar taqqoslab o‘rganildi.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda olib borildi:

1. Yashil iqtisodiyotning konseptual asoslarini o‘rganish;
2. Raqamli transformatsiya jarayonlarining mavjud holatini aniqlash;
3. Klasterlar faoliyati misolida iqtisodiy samaradorlikni baholash;
4. Empirik ma‘lumotlar asosida natijalarni tizimlashtirish;
5. O‘zbekiston uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari ekologik barqarorlikni ta‘minlash siyosati bilan uyg‘unlashib, keng ko‘lamli islohotlar bilan boyitildi. “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi – 2030” va “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturlari o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi asosiy hujjatlar sifatida mamlakat taraqqiyotida muhim o‘rin tutmoqda. Mazkur ikki yo‘nalishning integratsiyasi O‘zbekistonda barqaror rivojlanish klasterlarining shakllanishiga va ularning samarali faoliyat yuritishiga imkon yaratmoqda.

Energetika klasterlarining rivojlanishi

2023–2025-yillarda ishga tushirilgan 1000 MVt quvvatga ega shamol elektr stansiyalari hamda 500 MVt quvvatga ega quyosh elektr stansiyalari va boshqa yirik loyihalar mamlakat energetika balansida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda qayta tiklanuvchi manbalardan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi hajmi 6,5 milliard kVt/soatni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2020-yilga nisbatan 2,8 baravar yuqori bo‘lib, klaster asosidagi yondashuvning amaliy samaradorligini yaqqol namoyon etmoqda. Toshkent, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida energetika klasterlari shakllanib, yangi ishlab chiqarish quvvatlari bilan bir qatorda minglab ish o‘rinlari yaratildi.

Qishloq xo‘jaligidagi “aqli klasterlar”

Paxta-to‘qimachilik klasterlari O‘zbekiston iqtisodiyotida resurslardan kompleks foydalanish, mahsulot tannaxini pasaytirish va eksport hajmini kengaytirishda samarali mexanizm sifatida shakllandi. 2024-yilda 120 dan ortiq paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyat yuritib, tayyor mahsulot eksporti 2,5 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Raqamli texnologiyalar — “aqli sug‘orish tizimlari”, dronlar orqali monitoring va sun‘iy intellekt yordamida hosildorlik prognozlar — suv sarfini 25–30 foizgacha qisqartirish imkonini berdi. Bu jarayon nafaqat resurslardan oqilona foydalanishga, balki ekologik barqarorlikni ta‘minlashga ham xizmat qildi.

Sanoat klasterlari va raqamli transformatsiya

Kimyo va mashinasozlik tarmoqlarida resurs tejoychi texnologiyalarning joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. Shu bilan birga, chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini klaster shaklida rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Raqamli monitoring tizimlari ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, energiya sarfini nazorat qilish va yo‘qotishlarni kamaytirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Raqamli infratuzilma va xizmatlarning kengayishi

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi doirasida davlat xizmatlarini elektronlashtirish sezilarli natijalar berdi. 2024-yilga kelib 200 dan ortiq turdagi davlat xizmati elektron shaklda aholiga taqdim etildi. Internet foydalanuvchilari soni 31 milliondan oshdi. Natijada 3 milliondan ortiq fuqaro hujjatlarni masofadan turib

rasmiylashtirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Mazkur jarayon yashil iqtisodiyot loyihalarini monitoring qilish, resurs sarfini nazorat qilish va samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

SWOT-tahlil natijalari

Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan SWOT-tahlil quyidagi jihatlarni aniqladi:

Kuchli tomonlar: yashil iqtisodiyot davlat siyosatida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan; qayta tiklanuvchi energiya manbalarida katta salohiyat mavjud; xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik kuchaymoqda.

Zaif tomonlar: ayrim hududlarda raqamli infratuzilma yetarli emas; chiqindilarni qayta ishlash tizimi sust rivojlangan; malakali kadrlar tanqisligi kuzatilmoqda.

Imkoniyatlar: xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlari; “yashil” investitsiyalarni jalb etish; ekologik toza mahsulotlarga talabning ortishi.

Tahdidlar: global iqlim o‘zgarishi; iqtisodiy beqarorlik; texnologik qarzdorlikning kuchayishi.

O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyot nazariyasi mamlakatda ekologik iqtisodiyot, barqaror rivojlanish iqtisodiyoti va innovatsion iqtisodiyot elementlarini birlashtirgan holda shakllanmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlari yashil iqtisodiyot loyihalarining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida xizmat qilmoqda. Klasterlashuvning afzalliklari — iqtisodiy subyektlar o‘rtasida kooperatsiya va integratsiyaning kuchayishi, innovatsiyalarning tezroq joriy etilishi, xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarining kengayishi va hududiy rivojlanishda yangi ish o‘rinlarining yaratilishi bilan ifodalanadi.

Biroq, ayrim muammolar mavjud: raqamli infratuzilmaning to‘liq shakllanmaganligi, chiqindilarni qayta ishlash imkoniyatlarining yetarli emasligi, ekologik texnologiyalarni import qilish xarajatlarining yuqoriligi. Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy institutlardan “yashil kreditlar” jalb qilish, geografik imkoniyatlardan kelib chiqib quyosh va shamol energiyasini keng qo‘llash, yosh mutaxassislar va startaplar orqali innovatsion loyihalarni rivojlantirish mamlakat uchun istiqbolli yo‘nalishlar hisoblanadi.

O‘zbekistonning yashil iqtisodiyot va raqamli transformatsiya integratsiyasi kelgusida barqaror rivojlanishning asosiy drayveriga aylanishi kutilmoqda. Energetika, qishloq xo‘jaligi va sanoat klasterlarining rivojlanishi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda innovatsion kadrlar tayyorlash orqali mamlakat nafaqat ekologik, balki iqtisodiy barqarorlikni ham ta‘minlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu sababli strategik yo‘nalish sifatida quyidagilar ustuvor ahamiyat kasb etadi: qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini jadal rivojlantirish; “aqlli klasterlar”ni kengaytirish; chiqindilarni qayta ishlash tizimini modernizatsiya qilish; davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyalarni jalb etishni kuchaytirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot sharoitida raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanish klasterlari iqtisodiy o‘shishning yangi omillari sifatida shakllanmoqda. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi davlat siyosatida ustuvor yo‘nalish bo‘lib, 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va uglerod neytralligiga erishish maqsad qilingan. Shu jarayonlarda raqamli transformatsiya boshqaruvning shaffofligi, samaradorligi va monitoring tizimlarini kuchaytiruvchi asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Olingan natijalar quyidagilardan iborat:

- qayta tiklanuvchi energiya loyihalari hisobiga energiya balansida “yashil energiya” ulushi barqaror ortmoqda;
- qishloq xo‘jaligi klasterlarida raqamli texnologiyalar (aqlli sug‘orish, dronlar, IoT tizimlari) resurs tejamkorligini sezilarli darajada oshirmoqda;
- sanoat klasterlarida innovatsion texnologiyalar joriy etilishi chiqindilar hajmini kamaytirishga imkon bermoqda;
- elektron hukumat va raqamli monitoring tizimlari yashil iqtisodiyot loyihalarining samarali boshqarilishini ta‘minlamoqda.

Shu bilan birga, ayrim muammolar ham aniqlanmoqda: hududlarda raqamli infratuzilmaning to‘liq shakllanmaganligi, ekologik texnologiyalarni import qilish xarajatlarining yuqoriligi hamda chiqindilarni qayta ishlash klasterlarining yetarlicha rivojlanmaganligi.

1. Energetika sohasida:

- quyosh va shamol energiyasidan foydalanish loyihalarini kengaytirish;
- energetika klasterlarida raqamli monitoring tizimlarini majburiy joriy etish;
- uglerod chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha aniq ko‘rsatkichlarni belgilash.

2. Qishloq xo‘jaligida:

- “aqlli klasterlar”ni kengaytirish orqali suv va yer resurslaridan samarali foydalanish;
- raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun davlat subsidiyalarini oshirish;
- mahalliy ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish.

3. Sanoat sohasida:

- chiqindilarni qayta ishlash klasterlarini yaratish;
- “yashil sanoat zonalari”ni tashkil etish;
- innovatsion startaplarni klaster faoliyatiga jalb etish.

4. Institutsional islohotlarda:

- yashil iqtisodiyot va raqamli transformatsiyani birlashtiruvchi alohida agentlik tashkil etish;
- davlat-xususiy sheriklik asosida “yashil loyihalar”ni moliyalashtirishni kengaytirish;
- hududlarda raqamli infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha maxsus dasturlar qabul qilish.

5. Kadrlar tayyorlashda:

- yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar bo‘yicha o‘quv dasturlarini oliy ta‘lim muassasalarida joriy etish;
- xalqaro tajribaga ega mutaxassislarni jalb qilish;
- klaster boshqaruvi bo‘yicha malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish.

O‘zbekiston uchun yashil iqtisodiyot va raqamli transformatsiya integratsiyasi — bu nafaqat ekologik barqarorlikni ta‘minlash, balki mamlakatning global raqobatbardoshligini oshirish, yangi investitsiyalarni jalb qilish va aholining turmush darajasini yaxshilash imkonini beruvchi strategik yo‘nalishdir. Klasterlashuv mexanizmlari esa ushbu jarayonlarning iqtisodiy samaradorligini ta‘minlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi PQ–4477-son qarori “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 30 iyundagi qarori “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
3. Davlat statistika qo‘mitasi (2024). O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari. T.: www.stat.uz
4. Energetika vazirligi (2024). O‘zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo‘yicha yillik hisobot. T.: www.minenergy.uz
5. Jahon banki (2023). Uzbekistan: Towards a Green and Resilient Development. Washington, DC: World Bank.
6. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) (2022). Green Economy and Sustainable Development in Uzbekistan. New York: UNDP Regional Office.
7. Osiyo taraqqiyot banki (ADB) (2023). Uzbekistan Energy Sector Assessment, Strategy, and Road Map. Manila: ADB.
8. Karimov, B. (2021). Raqamli iqtisodiyot va yashil transformatsiya: O‘zbekiston sharoitida istiqbollari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali*, №5, 35–47.
9. Teshabayev, T. (2022). Barqaror rivojlanish klasterlari: nazariy asoslari va O‘zbekiston tajribasi. *TSUE Ilmiy axborotlari*, №3, 112–125.
10. Golestan, Z. (2023). Green economy and digitalization in Central Asia: case of Uzbekistan. *Central Asian Economic Review*, №2, 55–69.
11. OECD (2021). Green Growth and Sustainable Development: Policy Review of Uzbekistan. Paris: OECD Publishing.
12. Ibragimov, U. (2020). Klasterlashuv va innovatsion rivojlanishning o‘zaro bog‘liqligi. *Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*, №4, 78–89.
13. World Bank (2022). Digital Economy for Central Asia: Opportunities and Challenges. Washington, DC.
14. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. Toshkent: O‘zbekiston.
15. UNDP (2024). Uzbekistan Human Development Report: Digital Transformation and Sustainable Growth. New York.



**TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS
AND MATHEMATICS

23-24

OCTOBER
2030

23-24
OCTOBER
2025

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

UZBEKISTAN
STRATEGY
23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE
AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND
BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT
OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND
FINANCIAL SYSTEM AND
DIRECTIONS FOR DEVELOPING
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ
«УЗБЕКИСТАН –2030»

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS
ФОРУМ UZBEKISTAN
STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030
UZBEKISTAN
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI
VA XUSUSIY SEKTORNI
RIVOJLANTIRISH
YO'NALISHLARI